| | |
|---|---|
| **Toshkent shahri 2021 yil “31” avgust** | **г. Ташкент «31» август 2021 г.** |
| **Elektron raqamli imzo kalitlari sertifikatlarini ro‘yxatga olish va berish xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha OMMAVIY OFERTA** | **ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА на оказание услуг по регистрации и выдаче сертификатов ключей электронной цифровой подписи** |
| Mazkur ommaviy oferta O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga asosan, Elektron raqamli imzolar kalitlarini ro‘yxatga olish markazi – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi “Yangi texnologiyalar” ilmiy-axborot markazi” DUK (keyingi o‘rinlarda – “Ro‘yxatga olish markazi”), Ustav asosida harakat qiluvchi direktor Sh.S. Qayumov timsolida, O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 12 dekabrdagi PF-5278-son Farmoni va “Davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018 yil 11 apreldagi PQ-3662-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vazirlar Mahkamasining «Davlat xizmatlari markazlari orqali elektron raqamli imzo kalitini ro‘yxatga olish va elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida» 2018 yil 10 maydagi 348-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2020 yil 7 dekabrdagi 773-son, “Davlat xizmatlari markazlari orqali elektron raqamli imzo kalitini ro‘yxatga olish va elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida” 2018 yil 10 maydagi 348-son va “Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g‘risida” 2005 yil 26 sentyabrdagi 215-son qarorlariga muvofiq, ushbu ommaviy ofertada ko‘zda tutilgan shartlarda elektron raqamli imzo kalitlarini ro‘yxatga olish xizmatlarini ko‘rsatish yuzasidan murojaat etgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs bilan shartnomani (keyingi o‘rinlarda – Shartnoma) tuzish bo‘yicha rasmiy taklif hisoblanadi. | Настоящая публичная оферта на основании ст. 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан является официальным предложением Центра регистрации ключей электронных цифровых подписей – ГУП «Научно-информационный центр «Янги технологиялар» при Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан» (далее – «Центр регистрации»), в лице директора Ш.С. Каюмова, действующего на основании Устава, заключить с любым обратившимся физическим или юридическим лицом договор на оказание услуг регистрации ключей электронной цифровой подписи (далее – Договор) на условиях, предусмотренных настоящей публичной офертой в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об электронной цифровой подписи», Указом Президента Республики Узбекистан от 12 декабря 2017 г. № УП-5278 «О мерах по коренному реформированию национальной системы оказания государственных услуг населению», постановлением Президента Республики Узбекистан от 11 апреля 2018 г. № ПП-3662 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию системы оказания государственных услуг», постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 декабря 2020 г. № 773 «О внесении изменений и дополнений в постановление Кабинета Министров от 10 мая 2018 года № 348 «Об утверждении административного регламента оказания государственных услуг по регистрации ключа электронной цифровой подписи и выдаче сертификата электронной цифровой подписи через центры государственных услуг», от 10 мая 2018 г. № 348 «Об утверждении административного регламента оказания государственных услуг по регистрации ключа электронной цифровой подписи и выдаче сертификата электронной цифровой подписи через центры государственных услуг» и от 26 сентября 2005 г. № 215 «О совершенствовании нормативно-правовой базы в области |

| | |
|---|---|
| | использования электронной цифровой подписи». |
| Ommaviy oferta Ro'yxatga olish markazining Internet tarmog'idagi www.e-imzo.uz manzili bo'yicha saytida joylashtirilgan paytidan boshlab kuchga kiradi.<br><br>Ommaviy oferta saytda uni chaqirib olish haqida rasmiy xabar e'lon qilinguniga qadar amal qiladi.<br>Ro'yxatga olish markazi Ommaviy oferta shartlariga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) kiritish va/yoki istagan vaqtda uni o'z ixtiyoriga ko'ra chaqirib olish huquqiga ega bo'lib, bu Ro'yxatga olish markazining Internet tarmog'idagi www.e-imzo.uz manzilidagi saytida aks ettiriladi.<br><br>Ro'yxatga olish markazi tomonidan Ommaviy ofertaga kiritilgan o'zgartishishlar Ro'yxatga olish markazining Internetdagi www.e-imzo.uz manzilida joylashgan saytida e'lon qilinganidan keyin kuchga kiradi, agar bunday e'lon qilishda o'zgartirishlar kuchga kirishining boshqa muddati belgilanmagan bo'lsa. Ushbu Ommaviy oferta shartlari Ro'yxatga olish markaziga murojaat etgan barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun yagonadir. | Публичная оферта вступает в силу с момента ее размещения на сайте Центра регистрации в сети Интернет по адресу: www.e-imzo.uz.<br><br>Публичная оферта действует до размещения на сайте официального извещения о её отзыве.<br><br>Центр регистрации оставляет за собой право внести изменения (дополнения) в условия Публичной оферты и/или отозвать оферту в любой момент по своему усмотрению, что отражается на сайте Центра регистрации в сети Интернет по адресу: www.e-imzo.uz.<br><br>Изменения, внесенные Центром регистрации в Публичную оферту, вступают в силу после их размещения на сайте Центра регистрации в сети Интернет по адресу: www.e-imzo.uz, если иной срок вступления изменений в силу не определен дополнительно при таком размещении. Условия настоящей публичной оферты являются едиными для всех обратившихся в Центр регистрации физических и юридических лиц. |
| **1. Atamalar va ta'riflar**<br>**Ro'yxatga olish markazi** – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Ro'yxatga olish markazi.<br>**Vakolatli organlar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining<br>2018 yil 10 maydagi 348-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan barcha turdagi xizmatlardan erkin foydalanishni ta'minlaydigan elektron raqamli imzo sertifikatini berish" davlat xizmatini ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan davlat xizmatlari markazlari.<br><br>**Elektron raqamli imzo (ERI)** – elektron | **I. Термины и определения**<br>**Центр регистрации** – Центр регистрации при Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан.<br>**Уполномоченные органы** – центры государственных услуг Агентства государственных услуг при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, уполномоченные оказывать государственную услугу «Выдача сертификата электронной цифровой подписи, обеспечивающей свободный доступ ко всем видам услуг, оказываемым органами государственного и хозяйственного управления, органами государственной власти на местах и коммерческими банками» в соответствии с постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 10 мая 2018 г. № 348.<br>**Электронная цифровая подпись** (ЭЦП) – |

| | |
|---|---|
| hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini Elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolikning yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo. | подпись в электронном документе, полученная в результате специальных преобразований информации данного электронного документа с использованием закрытого ключа электронной цифровой подписи и позволяющая при помощи открытого ключа электронной цифровой подписи установить отсутствие искажения информации в электронном документе и идентифицировать владельца закрытого ключа электронной цифровой подписи. |
| **"Elektron raqamli imzo sertifikatini berish" xizmati** – Vakolatli organ tomonidan ERIning yopiq va ochiq kalitlarini yaratish, ERI kalitlarini ro'yxatga olish va ERI kalitlari sertifikatlarini berish bo'yicha xizmat. | **Услуга «Выдача сертификата электронной цифровой подписи»** – услуга, предоставляемая Уполномоченным органом по созданию закрытых и открытых ключей ЭЦП, регистрации ключей ЭЦП и выдаче сертификатов ключей ЭЦП. |
| **ERI kalitlari sertifikatlariga xizmat ko'rsatish** – Ro'yxatga olish markazi tomonidan ERI egasining arizasi asosida ERI kaliti sertifikatining amal qilish muddatini to'xtatib turish, bekor qilish, o'zgartirish yoki uzaytirish bo'yicha harakatlar. | **Обслуживание сертификатов ключей ЭЦП** – действия по приостановлению, возобновлению действия, аннулированию, смене или продлении срока действия сертификата ключа ЭЦП, совершаемые Центром регистрации на основании заявления владельца ЭЦП. |
| **Murojaat etgan shaxs** – davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tgan, soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR) va jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqami (JShShIR)ga ega, ERI kalitlarini ro'yxatga olish bo'yicha xizmatga muhtoj va uni olish uchun texnik imkoniyatga ega, Shartnomada belgilangan shartlarda Shartnomani tuzgan: | **Обратившееся лицо** – поставленное на учет в органах государственной налоговой службы, имеющее идентификационный номер налогоплательщика (ИНН) и персональный идентификационный номер физического лица (ПИНФЛ), нуждающееся в услуге по регистрации ключей ЭЦП и, имеющее техническую возможность ее получать, заключившее Договор на условиях, изложенных в Договоре: |
| ***yuridik shaxs*** – O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etilgan tashkilot, xorijiy tashkilot, xalqaro tashkilot; | ***юридическое лицо*** – организация, созданная в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, иностранная организация, международная организация; |
| ***jismoniy shaxs*** – O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet davlat fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs. | ***физическое лицо*** – гражданин Республики Узбекистан, гражданин иностранного государства, лицо без гражданства. |
| **ERI egasi** – (elektron hujjatni imzolaydigan) elektron raqamli imzoni yaratgan va uning nomiga Ro'yxatga olish markazi tomonidan elektron raqamli imzo kaliti sertifikati berilgan jismoniy shaxs. | **Владелец ЭЦП** – физическое лицо, создавшее электронную цифровую подпись (подписывающее электронный документ) и на имя которого Центром регистрации выдан сертификат ключа ЭЦП. |
| **Xizmat sayti** – Ro'yxatga olish markazining ERI kalitlarini yaratish va olish uchun arizalarni qabul qilishni, Ro'yxatga olish markazining ERI vositalaridan foydalangan holda ERI kalitlarini mustaqil generatsiyalashni ta'minlaydigan Internet tarmog'idagi www.e-imzo.uz manzilida | **Сайт услуги** – Вебсайт Центра регистрации в сети Интернет по адресу www.e-imzo.uz, обеспечивающий прием заявок на создание и получение ключей ЭЦП, самостоятельную генерацию ключей ЭЦП обратившимся лицом с использованием средств ЭЦП Центра |

| | |
|---|---|
| joylashgan veb-sayti. | регистрации. |
| **Ariza** – murojaat etuvchi shaxs tomonidan xizmatlarning saytida rasmiylashtirilgan ERI kalitlarini ro'yxatdan o'tkazish, ERI kalitlarini generatsiyalash va ERI kalitlari sertifikatlarini olish niyati to'g'risida oldindan xabar berilishi. | **Заявка** – заблаговременное уведомление Центра регистрации, составленное обратившимся лицом на сайте услуги, о намерении получить услугу по регистрации ключей ЭЦП, генерации ключей ЭЦП и получении сертификата ключей ЭЦП. |
| **Ariza-bitim** – ERI kalitlarini ro'yxatdan o'tkazish xizmatini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat. ERI kaliti sertifikatini berish uchun zarur bo'lgan ariza-bitimning shakli va unga biriktirilgan hujjatlar ro'yxati Ro'yxatga olish markazi tomonidan belgilanadi. | **Заявление–соглашение** – документ, содержащий информацию, необходимую для оказания услуги регистрации ключей ЭЦП. Форма заявления-соглашения и перечень прилагаемых к нему документов, необходимых для выдачи сертификата ключа ЭЦП определяются Центром регистрации. |
| **Xizmat uchun to'lov** – Ro'yxatga olish markazi tomonidan, ba'zi hollarda qonun hujjatlariga muvofiq, Ro'yxatga olish markazining ERI kalitlari sertifikatlarini ro'yxatga olish va berish hamda ERI kalitlari sertifikatlariga xizmat ko'rsatishi uchun belgilanadigan to'lov. | **Плата за услугу** – устанавливаемая Центром регистрации, в отдельных случаях законодательством, плата, за которую Центр регистрации оказывает услугу по регистрации и выдаче сертификатов ключей ЭЦП и обслуживанию сертификата ключей ЭЦП. |
| **O'zga ma'lumotlar manbai** – USB-flash saqlash vositasi, ko'chma va qattiq disklar, token va boshqalar, shuningdek ERIning yopiq kaliti va ERI kalit sertifikatini elektron hujjat shaklida saqlashga imkon beruvchi xavfsiz portativ axborotni saqlash vositasi (himoyalangan USB-token). | **Съемный носитель данных** – USB-flash носитель, переносные и жесткие диски, токен и др., а также защищенный портативный носитель информации (защищенный USB-токен), позволяющий хранить закрытый ключ ЭЦП и сертификат ключа ЭЦП в форме электронного документа. |
| **ERI kalitining sertifikati** – elektron raqamli imzo ochiq kalitining elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga muvofiqligini tasdiqlaydigan va Ro'yxatga olish markazi tomonidan Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti egasiga berilgan hujjat. | **Сертификат ключа ЭЦП** – документ, подтверждающий соответствие открытого ключа электронной цифровой подписи закрытому ключу электронной цифровой подписи и выданный Центром регистрации Владельцу закрытого ключа электронной цифровой подписи. |
| **ERI kaliti sertifikatini bekor qilish** – ERI kaliti sertifikatining noyob ro'yxatga olish (seriya) raqamini Ro'yxatga olish markazining ERI kalitlari sertifikatlarini boshqarish tizimiga va bekor qilingan ERI kalitlari sertifikatlari ro'yxatiga kiritish, shuningdek ERI sertifikatlari reestriga ERI kaliti sertifikatining amal qilishini to'xtatish to'g'risidagi ma'lumotni to'xtatishning sanasi va vaqtini ko'rsatgan holda kiritish orqali ERI sertifikatining amal qilishini bekor qilish yoki to'xtatish. | **Аннулирование сертификата ключа ЭЦП** – признание недействительным и прекращение действия сертификата ЭЦП путем внесения уникального регистрационного (серийного) номера сертификата ключа ЭЦП в систему управления сертификатами ключей ЭЦП Центра регистрации и в список аннулированных сертификатов ключей ЭЦП, а также внесения в реестр сертификатов ЭЦП информации о прекращении действия сертификата ключа ЭЦП с указанием даты |

| | |
|---|---|
| | и времени прекращения. |
| **ERI kalitlaridan foydalanish va saqlash qoidalari** – ERI egasining ERI yopiq kalitidan foydalanishdagi xatti-harakatlari bo'yicha aniq ko'rsatmalar va majburiy qoidalar. Qoidalar xizmat saytida joylashtirilgan.<br><br>**ERI yopiq kalitining komprometasiyasi** – Ro'yxatga olish markazi yoki ERI egasi tomonidan vakolati bo'lmagan shaxs (shaxslar)ning ERI yopiq kaliti bilan tanishishi singari aniqlangan holat, shuningdek ERI egasining o'ziga berilgan vakolatlardan insofsizlik bilan foylanishi. ERI yopiq kalitining komprometasiyasi bilan bog'liq hodisalarga, shu jumladan, lekin cheklanmagan holda, quyidagilar kiradi:<br>o'zga ma'lumotlar manbaining yo'qolishi, shu jumladan, uning keyinchalik topilishi;<br>ERI kalitlaridan foydalanish va ularni saqlash qoidalarining buzilishi;<br>o'zga ma'lumotlar manbaiga ega seyfdagi muhrning buzilganligi dalolatnoma tuzgan holda aniqlanishi;<br>ERI egasi tomonidan o'ziga qonunga yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnomaga asosan berilgan vakolatlarning suiste'mol qilinishi;<br>o'zga ma'lumotlar manbai bilan nima ro'y berganini ishonchli aniqlashning imkoni bo'lmagan holatlar. | **Правила пользования и хранения ключей ЭЦП** – точное предписание и обязательное правило поведения Владельца ЭЦП при пользовании закрытым ключом ЭЦП. Правила размещены на сайте услуги.<br><br>**Компрометация закрытого ключа ЭЦП** – событие, определенное Центром регистрации или Владельцем ЭЦП, как ознакомление неуполномоченным лицом (лицами) с закрытым ключом ЭЦП, а также недобросовестное пользование Владельцем ЭЦП данными ему полномочиями. К событиям, связанным с компрометацией закрытого ключа ЭЦП относятся, включая, но не ограничиваясь, следующие:<br>утеря съемного носителя данных, в том числе с его последующим обнаружением;<br>нарушение правил пользования и хранения ключей ЭЦП;<br>заактированное обнаружение нарушения печати на сейфе со съемным носителем данных.<br>злоупотребление Владельцем ЭЦП полномочиями, которые даны ему на основании закона или удостоверенной в установленном порядке доверенности.<br>случаи, когда нельзя достоверно установить, что произошло со съемным носителем данных. |
| **2. Shartnomani tuzish tartibi**<br>2.1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 364, 370-moddalariga muvofiq, shartnoma ushbu ommaviy ofertani qabul qilish, ya'ni ushbu ommaviy oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilinishini ifoda etish yo'li bilan tuziladi.<br>2.2. Murojaat etgan shaxs tomonidan Vakolatli organga, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno, imzolangan ariza-bitimning yoki elektron ko'rinishdagi arizaning taqdim etilishi va murojaat etgan shaxs tomonidan ERI kalitlari sertifikatini ro'yxatga olish va berish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovning amalga oshirilishi shartlarning qabul qilingani hisoblanadi. | **2. Порядок заключения договора**<br>2.1. В соответствии со ст. ст. 364, 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан договор заключается путем акцепта настоящей публичной оферты, то есть выражением полного и безоговорочного принятия условий настоящей публичной оферты.<br>2.2. Акцептом является предоставление обратившимся лицом Уполномоченному органу, за исключением случаев, предусмотренных законодательством, подписанного заявления-соглашения или заявки в электронном виде и внесение платы за услугу по регистрации и выдаче сертификата ключей ЭЦП обратившимся лицом. |

| | |
|---|---|
| 2.3. Ariza-bitim va arizaning taqdim etilishi ushbu ommaviy oferta shartlarining to‘liq va so‘zsiz qabul qilinganligi (aksept)ni anglatadi. | 2.3. Подача заявления-соглашения и заявки свидетельствует о полном и безоговорочном принятии (акцепте) условий настоящей публичной оферты. |
| 2.4. Murojaat etgan shaxs qonunda belgilangan va saytda berilgan shaklda anketa shaklida ariza-bitimni yoki arizani rasmiylashtiradi. | 2.4. Обратившееся лицо оформляет заявление-соглашение или заявку в форме анкеты по форме установленной, законодательством и приведенной на сайте. |
| 2.5. Shartlarni qabul qilishdan oldin murojaat etgan shaxs ushbu ommaviy ofertaning barcha shartlari bilan tanishishi lozim. Shartlarni qabul qilgan murojaat etuvchi shaxs ushbu ommaviy ofertaning barcha shartlari bilan tanishgan va ularga rozi bo‘lgan hisoblanadi, bunda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366, 370-moddalariga muvofiq, shartnoma ushbu ommaviy oferta shartlarida yozma ravishda tuzilgan deb hisoblanadi va ikki tomon o‘rtasida imzolagan bitim kuchiga ega bo‘ladi. Ushbu ommaviy ofertada ko‘rsatilgan shartlarda shartnomani tuzish vaqti ariza-bitimni taqdim etish hisoblanadi. | 2.5. До совершения акцепта обратившееся лицо обязано ознакомиться со всеми условиями настоящей публичной оферты. Обратившееся лицо, совершившее акцепт, считается ознакомившимся и согласным со всеми условиями настоящей публичной оферты, при этом договор в соответствии со ст. ст. 366, 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан считается заключенным в письменной форме на условиях настоящей публичной оферты и является равносильным договору, подписанному двумя сторонами. Моментом заключения договора на условиях, указанных в настоящей публичной оферте является подача заявления-соглашения. |
| **3. Shartnomaning predmeti**<br>3.1. Ro‘yxatga olish markazi murojaat etgan shaxsning topshirig‘iga ko‘ra Vakolatli organ orqali murojaat etgan shaxsga xizmatning saytida joylashtirilgan stavkalar ro‘yxatiga, shuningdek tegishli qonun hujjatlarida belgilangan yig‘im miqdoriga muvofiq haq evaziga **“Elektron raqamli imzo sertifikatini** berish” xizmatini (keyingi o‘rinlarda – Xizmat) taqdim qilish majburiyatini oladi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno. | **3. Предмет договора**<br>3.1. Центр регистрации по поручению обратившегося лица обязуется за плату оказать обратившемуся лицу услугу **«Выдача сертификата электронной цифровой подписи»** через Уполномоченный орган, за исключением случаев, установленных законодательством, в соответствии со ставками, размещенном на сайте услуги, а также сбором в размере, установленном соответствующими актами законодательства (далее – Услуга). |
| 3.2. Murojaat etgan shaxs Shartnomada belgilangan shartlar va tartibda xizmat haqini to‘lashi va ERI kalitlari sertifikatini ro‘yxatga olish va berish bo‘yicha xizmatni qabul qilishi shart. | 3.2. Обратившееся лицо обязуется внести плату за услугу и принять услугу по регистрации и выдаче сертификата ключей ЭЦП на условиях и в порядке, установленном Договором. |
| 3.3. ERI kaliti sertifikatini ro‘yxatga olish va berish xizmati murojaat etgan shaxs tomonidan ERI kaliti sertifikati olingan paytdan boshlab taqdim etilgan deb hisoblanadi. | 3.3. Услуга по регистрации и выдаче сертификата ключей ЭЦП считается оказанной с момента получения обратившимся лицом сертификата ключа ЭЦП. |
| 3.4. ERIni ro‘yxatdan o‘tkazish va ERI kalit sertifikatlarini berish vakolatli organlar orqali “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy | 3.4. Регистрация ЭЦП и выдача сертификатов ключей ЭЦП осуществляется через уполномоченные органы в качестве |

| | |
|---|---|
| davlat hokimiyati organlari hamda tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan barcha turdagi xizmatlardan erkin foydalanishni ta'minlaydigan elektron raqamli imzo sertifikatini berish" davlat xizmati sifatida amalga oshiriladi, qonun bilan belgilangan holatlar bundan mustasno.<br><br>3.5. Murojaat etgan shaxsning arizasiga ko'ra, Ro'yxatga olish markazi Shartnoma shartlarida stavkalar ro'yxati (yig'im)ga muvofiq ERI kaliti sertifikatiga xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni taqdim etadi. | государственной услуги «Выдача сертификата электронной цифровой подписи, обеспечивающей свободный доступ ко всем видам услуг, оказываемым органами государственного и хозяйственного управления, органами государственной власти на местах и коммерческими банками», за исключением случаев, установленных законодательством.<br>3.5. По заявлению обратившегося лица Центр регистрации оказывает услуги по обслуживанию сертификата ключа ЭЦП на условиях Договора в соответствии со ставками (сбором). |
| **4. Hisob-kitob qilish tartibi**<br>4.1. ERI kaliti sertifikatini ro'yxatdan o'tkazish va berish bo'yicha xizmatlar narxi Ro'yxatga olish markazining stavkalari (yig'imi) bo'yicha belgilanadi.<br><br>4.2. Murojaat etgan shaxs mazkur ommaviy oferta qabul qilingan kundan boshlab uning shartlariga muvofiq 5 ish kuni davomida ro'yxatga olish va ERI kalitining sertifikatini berish xizmatlari uchun 100 foiz oldindan to'lovni amalga oshiradi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.<br>4.3. Shartnoma bo'yicha barcha to'lovlar milliy valyutada – ham naqd, ham naqdsiz usulda amalga oshiriladi:<br><br>4.3.1. Jismoniy shaxslardan:<br>a) naqd pul bilan to'lash naqd pulni bank kassasi orqali qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi;<br>б) naqdsiz to'lov (plastik karta) jismoniy shaxsning kartasidan bankning kassasi orqali pul mablag'larini yechish yo'li bilan, yohud pul mablag'larini jismoniy shaxsning kartasidan bankdan tashqari elektron to'lov tizimlari orqali (MUNIS, PAY ME, CLICK, PAYNET, WOY-WO, U-PAY va boshqalar) yechish yo'li bilan amalga oshiriladi.<br>4.3.2. Yuridik shaxslardan:<br>a) yuridik shaxsning hisobvarag'idan Ro'yxatga olish markazining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan naqdsiz to'lov;<br><br>б) bank kartalari orqali naqd pulsiz shaklda to'lov tizimi operatorlari orqali. Bunda to'lov | **4. Порядок расчетов**<br>4.1. Стоимость услуг по регистрации и выдаче сертификата ключей ЭЦП определяется ставками (сборами) Центра регистрации.<br><br>4.2. Обратившееся лицо производит предварительную оплату в размере 100 процентов услуг по регистрации и выдаче сертификата ключей ЭЦП, за исключением случаев, предусмотренных законодательством, в течение 5 рабочих дней после акцепта настоящей публичной оферты в соответствии с ее условиями.<br>4.3. Все расчеты по Договору осуществляются в национальной валюте – сум, как наличным, так и безналичным способами оплаты:<br>4.3.1. От физических лиц:<br>а) оплата наличными осуществляется путем приемки наличных денежных средств через приемную кассу банка;<br>б) безналичная оплата (пластиковая карта) осуществляется, путем списания денежных средств с карты физического лица через приемную кассу банка, либо путем списания денежных средств с карты физического лица через внебанковские электронные системы платежей (МУНИС, PAY ME, CLICK, PAYNET, WOY-WO, U-PAY и др.).<br>4.3.2. От юридических лиц:<br>а) безналичная оплата путем перечисления денежных средств с расчетного счета юридического лица на расчетный счет Центра регистрации<br>б) посредством банковских карт через операторов платежной системы в безналичной |

| | |
|---|---|
| tizimi operatorlari orqali amalga oshirilgan har bir to'lov Davlat xizmatlari markazlarining biriktirilgan xodimlari tomonidan tekshirib, qayd qilinadi;<br><br>в) қonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullar bilan.<br><br>4.4. Hisobda ko'rsatilgan narx qat'iy bo'lib, Shartnomaning amal qilish muddatiga belgilanadi va qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'zgarishi munosabati bilan o'zgarishi mumkin.<br>4.5. Ro'yxatga olish markazining stavkalarida (yig'im) o'rnatilgan ERI kalitlari sertifikatini ro'yxatga olish va berish xizmati stavkasidan ortiqcha to'langan summa murojaat etgan shaxsning yozma so'rovi asosida qaytariladi yoki ERI kalitlari sertifikatini ro'yxatga olish va berish xizmatlari uchun kelgusidagi to'lovlarni to'lash hisobiga qabul qilinadi. | форме. В этом случае поступление каждого платежа, произведенного через операторов платежной системы, проверяется и учитывается прикрепленными работниками центров государственных услуг;<br>в) иными способами, предусмотренными законодательством.<br>4.4. Цена, указанная в счете является твердой, определяется на весь срок действия Договора и может изменяться в связи с изменением минимального размера оплаты труда, устанавливаемого законодательством.<br>4.5. Излишне уплаченная сумма, по сравнению со стоимостью услуг по регистрации и выдаче сертификата ключей ЭЦП, установленной ставками (сбор) Центром регистрации, подлежит возврату на основании письменного запроса обратившегося лица либо будет зачислена в счет погашения предстоящих платежей по оплате услуг регистрации и выдачи сертификата ключей ЭЦП в качестве предоплаты. |
| **5. Majburiyatlarni bajarish tartibi**<br>5.1. Ro'yxatga olish markazi quyidagilarni bajarishi shart:<br>5.1.1. kriptografik axborot vositalaridan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya qilish, O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 maydagi 348-son "Davlat xizmatlari markazlari orqali elektron raqamli imzo kalitini ro'yxatga olish va elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida"gi va 2005 yil 26 sentyabrdagi 215-son "Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq Ro'yxatga olish markazining vazifalarini bajarish;<br><br>5.1.2. Murojaat etgan shaxsning ariza-bitimiga asosan ERI kaliti sertifikatini ro'yxatga olish va berish xizmati uchun to'lovning kelib tushganidan keyin bir ish soati davomida ERI ochiq va/yoki yopiq kalitining yaratilishini hamda ERI kalit sertifikatining berilishini ta'minlash; | **5. Порядок исполнения обязательств**<br>5.1. Центр регистрации обязан:<br><br>5.1.1. соблюдать установленные правила использования средств криптографической информации, выполнять обязанности центра регистрации в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об электронной цифровой подписи», постановлениями Кабинета Министров Республики Узбекистан от 10 мая 2018 г. № 348 «Об утверждении административного регламента оказания государственных услуг по регистрации ключа электронной цифровой подписи и выдаче сертификата электронной цифровой подписи через центры государственных услуг» и от 26 сентября 2005 г. № 215 «О совершенствовании нормативно-правовой базы в области использования электронной цифровой подписи» и другими нормативно-правовыми документами;<br>5.1.2. Обеспечить создание открытого и/или закрытого ключей ЭЦП и выдачу сертификата ключа ЭЦП в течение одного рабочего часа после поступления платы за услугу по регистрации и выдаче сертификата ключа ЭЦП на основании заявления-соглашения обратившегося лица; |

| | |
|---|---|
| 5.1.3. Vakolatli organlar orqali ERI kalitlari va ERI kalitlari sertifikatlarini berishni amalga oshirish; | 5.1.3. произвести передачу ключей ЭЦП и сертификата ключей ЭЦП через уполномоченные органы; |
| 5.1.4. ERI kalit sertifikatlari reestrini belgilangan tartibda yuritish; | 5.1.4 вести в установленном порядке реестр сертификатов ключей ЭЦП; |
| 5.1.5. ERI kalit sertifikatlari reestrining to‘g‘riligini ta'minlash; | 5.1.5. обеспечивать актуальность реестра сертификатов ключей ЭЦП; |
| 5.1.6. ERI kaliti sertifikatini amal qilish muddati davomida elektron hujjat ko‘rinishida saqlash; | 5.1.6. хранить сертификат ключа ЭЦП в форме электронного документа в течение срока его действия; |
| 5.1.7. Bekor qilingan elektron hujjat shaklidagi ERI kaliti sertifikatini bekor qilingan kundan boshlab 3 yil davomida saqlash; | 5.1.7. хранить аннулированный сертификат ключа ЭЦП в форме электронного документа в течение 3 лет со дня его аннулирования; |
| 5.1.8. elektron hujjat shaklidagi ERI kaliti sertifikatini uning amal qilish muddati tugagan kundan boshlab 3 yil davomida saqlash; | 5.1.8. хранить сертификат ключа ЭЦП в форме электронного документа в течение 3 лет со дня истечения срока его действия; |
| 5.1.9. ERI egalarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun zarur tashkiliy choralarni ko‘rish. | 5.1.9. принимать необходимые организационные меры для защиты персональных данных владельцев ЭЦП. |
| 5.2. Ro‘yxatga olish markazi quyidagi huquqlarga ega: | 5.2. Центр регистрации вправе: |
| 5.2.1. amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra, ERI kaliti sertifikatini berishni rad etish; | 5.2.1. отказать в выдаче сертификата ключа ЭЦП по основаниям, предусмотренным действующим законодательством; |
| 5.2.2. ERI yopiq kaliti komprometasiya qilingan holatda Murojaat qilgan shaxsni xabardor qilgan holda ERI kaliti sertifikatini bekor qilish. | 5.2.2. аннулировать сертификат ключа ЭЦП в случае компрометации Закрытого ключа ЭЦП, с уведомлением Обратившегося лица. |
| 5.3. ERI egasi quyidagilarga majbur: | 5.3. Владелец ЭЦП обязан: |
| 5.3.1. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 maydagi 348-son “Davlat xizmatlari markazlari orqali elektron raqamli imzo kalitini ro‘yxatga olish va elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida”gi va 2005 yil 26 sentyabrdagi 215-son “Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g‘risida”gi va elektron raqamli imzoni tartibga solish sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilish; | 5.3.1. строго соблюдать требования Закона Республики Узбекистан «Об электронной цифровой подписи», постановлений Кабинета Министров Республики Узбекистан от 10 мая 2018 г. № 348 «Об утверждении административного регламента оказания государственных услуг по регистрации ключа электронной цифровой подписи и выдаче сертификата электронной цифровой подписи через центры государственных услуг» и от 26 сентября 2005 г. № 215 «О совершенствовании нормативно-правовой базы в области использования электронной цифровой подписи», а также иные нормативно-правовые в области регулирования электронной цифровой подписи. |
| 5.3.2. Ro‘yxatga olish markazining xizmatlari uchun ushbu Oferta shartlariga muvofiq to‘liq | 5.3.2. оплачивать Услугу Центра регистрации |

| | |
|---|---|
| hajmda to'lovlarni amalga oshirish;<br><br>5.3.3. ERI kalitlarini va ERI kaliti sertifikatini elektron hujjat shaklida yozib olish uchun o'z hisobidan o'zga ma'lumotlar manbai taqdim etish;<br><br>5.3.4. ERI kalitlaridan foydalanish va saqlash qoidalariga rioya qilish;<br>5.3.5. Ariza-bitimni yoki arizani topshirishdan oldin murojaat etuvchi shaxs ERI kalitlarini mustaqil ravishda, shu jumladan xizmatning saytida Ro'yxatga olish markazining ERI vositalaridan foydalangan holda generatsiyalashi va ularni Ro'yxatga olish markaziga ro'yxatga olish uchun taqdim etishi mumkin. | в полном объеме согласно условиям настоящей Оферты.<br><br>5.3.3. представить за свой счет съемный носитель данных для записи ключей ЭЦП и сертификата ключа ЭЦП в форме электронного документа.<br>5.3.4. Соблюдать правила пользования и хранения ключей ЭЦП.<br>5.3.5. До подачи Заявления-соглашения или заявки обратившееся лицо может самостоятельно сгенерировать ключи ЭЦП, в том числе с использованием средств ЭЦП Центра регистрации на сайте услуги и представить их на регистрацию в Центр регистрации. |
| **6. Tomonlarning javobgarligi**<br>6.1. Tomonlarning shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.<br><br>6.2. Ro'yxatga olish markazi Murojaat etuvchi oldida Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni belgilangan tartibda bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va hajmda javobgardir.<br><br>6.3. Ro'yxatga olish markazi quyidagilar uchun javobgar emas:<br>ERI yopiq kalitining Ro'yxatga olish markazining aybisiz komprometasiya bo'lishi oqibatlari;<br>ERI egasi tomonidan Ro'yxatga olish markazining ERI kaliti sertifikatini ro'yxatga olish va berish bo'yicha xizmat ko'rsatish tartibining o'zgargani to'g'risida tarqatgan ma'lumotlarni Ro'yxatga olish markaziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra olmasligi;<br>ERI kaliti sertifikatining uchinchi shaxslar tomonidan foydalanilishi natijasida ERI egasi tomonidan ko'rilgan zararlar.<br>6.4. O'zbekiston Respublikasining elektron raqamli imzo to'g'risidagi qonunchiligiga, xususan, shartnoma normalariga rioya qilmaganligi uchun ERI egasi mustaqil ravishda | **6. Ответственность Сторон**<br>6.1. Ответственность Сторон, за не исполнение или ненадлежащее исполнение своих обязательств по Договору, регулируется действующим законодательством Республики Узбекистан.<br><br>6.2. Центр регистрации несет ответственность перед Обратившимся лицом за неисполнение или ненадлежащее исполнение обязательств по Договору, в порядке и размерах, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан.<br><br>6.3. Центр регистрации не несет ответственности за:<br>последствия компрометации закрытого ключа ЭЦП не по вине Центра регистрации;<br>не получение владельцем ЭЦП распространенной Центром регистрации информации об изменении порядка оказания услуг по регистрации и выдаче сертификата ключа ЭЦП, по не зависящим от Центр регистрации причинам.<br>убытки, понесенные последним в результате использования третьими лицами сертификата ключа ЭЦП.<br><br>6.4. За несоблюдение законодательства Республики Узбекистан об электронной цифровой подписи, в частности норм в Договоре, Владелец ЭЦП самостоятельно несет полную |

| | |
|---|---|
| to'liq javobgardir. | ответственность. |
| **7. Shartnomaning amal qilish muddati**<br>7.1. Shartnoma qabul qilingan paytdan boshlab kuchga kirib, uning shartlari to'liq bajarilgunga qadar, lekin qonun hujjatlarida belgilangan muddatdan ko'p bo'lmagan davrda amal qiladi.<br><br>7.2. Keyinchalik shartnoma muddati ko'pi bilan ikki marta uzaytiriladi.<br>7.3. Stavkalar (yig'im) saytda joylashtiriladi va Ro'yxatga olish markazining rasmiy hujjati hisoblanadi. | **7. Срок действия договора**<br>7.1. Договор вступает в силу с момента его акцепта, до полного исполнения условий договора, но не более установленного законодательством срока.<br><br>7.2. Далее срок действия Договора продлевается не более двух раз.<br>7.3. Ставки (сбор) размещается на сайте и является официальным документом Центра регистрации. |
| **8. Da'volarni ko'rib chiqish tartibi**<br>8.1. Ro'yxatga olish markazi tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmasa yoki lozim darajada bajarilmagan bo'lsa, ERI egasi Ro'yxatga olish markazi yoki Vakolatli organga e'tiroz xatini yuboradi.<br>8.2. E'tiroz xati ERI egasi tomonidan yozma shaklda taqdim etiladi hamda Ro'yxatga olish markazi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.<br>8.3. Ro'yxatdan o'tkazish markazi e'tiroz xati olingan kundan boshlab o'n besh kunlik muddatda unga javob berish majburiyatiga ega. E'tiroz xatiga javob buyurtma xati bilan, telegraf, teletayp orqali, elektron shaklda yuboriladi yoki ERI egasiga imzo qo'ydirib topshiriladi.<br><br>8.4. ERI yopiq kalitining komprometasiyasi natijasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Ro'yxatdan o'tkazish markazi belgilangan tartibda ichki texnik tekshiruvni o'tkazishga haqlidir. | **8. Порядок рассмотрения претензий**<br>8.1. При неисполнении или ненадлежащем исполнении Центром регистрации обязательств по договору Владелец ЭЦП представляет в Центр регистрации или Уполномоченный орган претензию.<br>8.2. Претензия предъявляется владельцем ЭЦП в письменном виде и подлежит регистрации Центром регистрации в установленном порядке.<br><br>8.3. Центр регистрации обязан в пятнадцатидневный срок со дня получения претензии дать на нее ответ. Ответ на претензию отправляется заказным письмом, по телеграфу, телетайпу, электронном виде, либо вручается владельцу ЭЦП под расписку.<br><br>8.4. При разногласиях, возникших в результате компрометации закрытого ключа ЭЦП Центр регистрации вправе провести внутреннее техническое расследование в установленном порядке. |
| **9. Nizolarni hal qilish tartibi**<br>9.1. Shartnomani bajarish bo'yicha barcha nizolar va kelishmovchiliklar taraflar tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Shartnoma shartlariga muvofiq hal qilinadi. Taraflar kelisha olmagan kelishmovchiliklar Ro'yxatga olish markazi joylashgan manzil bo'yicha sudlarda ko'rib chiqiladi. | **9. Порядок разрешения споров**<br>9.1. Все споры и разногласия по исполнению Договора разрешаются сторонами в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан и условиями Договора. Разногласия, по которым стороны не достигнута договорённость, подлежат рассмотрению в судах по месту нахождения Центра регистрации. |
| **10. Fors-major**<br>10.1. Taraflar ushbu Shartnoma kuchga kirgandan keyin vujudga kelgan va Taraflar | **10. Форс-мажор**<br>10.1. Стороны освобождаются от ответственности за частичное или полное |

| | |
|---|---|
| mumkin bo'lgan choralarni ko'rish yoki oldini olishning iloji bo'lmagan yengib bo'lmas kuch holatlari, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmasdan: tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari harakatlari, terrorchilik harakatlari, aloqa kanallari va elektr tarmoqlarining nosozligi va g'ayritabiiy ishlashi ta'siri natijasida, agar ushbu omillarning ta'siri bevosita Taraflarning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelganini isbotlasalar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.<br><br>10.2. Taraflar fors-major holatlarining yuzaga kelgani va tugallangani to'g'risida darhol bir-birlarini xabardor qilishlari shart. Fors-major holatlariga ishora qiladigan taraf ularning mavjudligi to'g'risida ma'lum qilgan va tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan hujjatni taqdim etgan kundan boshlab javobgarlikdan ozod qilinadi.<br><br>10.3. Fors-major holatlarining vujudga kelgani to'g'risidagi xabarnoma mazmunni, holatlarni va ularning Taraflarning shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ta'siri to'g'risidagi, shuningdek majburiyatlarni bajarishning taxminiy muddati to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. | невыполнение своих обязательств по Договору, если они докажут, что это произошло в результате действия обстоятельств непреодолимой силы, включая, но не ограничиваясь ими: стихийные бедствия, военные действия, действие актов органов государственной власти и управления, террористические акты, неисправности и нештатная работа каналов связи и электрических сетей, если действие этих факторов непосредственно привело к невозможности выполнения Сторонами своих обязательств по Договору, которые возникли после вступления настоящего договора в силу и которые Стороны не могли предвидеть или предотвратить возможными мерами.<br><br>10.2. Стороны обязаны незамедлительно уведомлять друг друга о возникновении и прекращении действия форс-мажорных обстоятельств. Сторона, ссылающаяся на форс-мажорные обстоятельства, освобождается от ответственности со дня заявления об их существовании и представления документа, выданного соответствующим компетентным органом.<br><br>10.3. Уведомление о возникновении форс-мажорных обстоятельств должно содержать соответствующую информацию о характере, обстоятельствах и их влиянии на возможность исполнения Стороной своих обязательств по Договору, а также о предполагаемом сроке исполнения обязательств. |
| **11. Ma'lumotlarni oshkor qilish va maxfiylikni saqlaш**<br>11.1. Ro'yxatdan o'tish markazi tomonidan xizmatlar ko'rsatilganda ERI egasi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligi kafolatlanadi.<br>11.2. Taraflar tuzilgan Shartnoma va unda ko'zda tutilgan majburiyatlarning maxfiyligini ta'minlaydi va ikkinchi Tarafning yozma roziligisiz Shartnomani bajarish paytida va/yoki u bilan bog'liq holda olingan biron bir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaydi.<br><br>11.3. Ro'yxatga olish markazi ERI egasi to'g'risidagi ma'lumotlarni faqat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, bitim amalga oshiriladigan joyda qo'llaniladigan huquq | **11. Раскрытие информации и конфиденциальность**<br>11.1. При оказании услуг Центром регистрации, гарантируется конфиденциальность сведений о Владельце ЭЦП.<br>11.2. Стороны будут обеспечивать конфиденциальность в отношении заключенного Договора и предусмотренных им обязательств, и не раскроют третьим лицам никакую информацию, полученную в ходе исполнения Договора и/или в связи с ним, без письменного согласия второй Стороны.<br>11.3. Центр регистрации вправе раскрыть информацию о Владельце ЭЦП, только в случаях, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан, нормами права применимыми в |

| | |
|---|---|
| normalarida ko'zda tutilgan hollarda, Shartnomani tegishli tartibda bajarish paytida, yoki qabul qilingan bozor amaliyotiga bog'liq ravishda oshkor qilish zarur bo'lganda oshkor qilish huquqiga ega. | месте исполнения сделки, в ходе надлежащего исполнения Договора, или когда раскрытие информации необходимо в связи с принятой рыночной практикой. |
| **12. Boshqa shartlar**<br>12.1. ERI kalitining ishlashida uzilishlar yoki xatolar ro'y berganida ERI kalitining egasi Ro'yxatga olish markazining 71 202-32-32 raqami bo'yicha qo'llab-quqqatlash xizmatidan foydalanishi yoki o'ziga yaqin joylashgan davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilishi mumkin.<br><br>12.2. Ushbu Ofertada ko'zda tutilmagan boshqa barcha holatlarda Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq harakat qiladilar. | **12. Прочие условия**<br>12.1. В случаи возникновения сбоев или ошибок в работе ключа ЭЦП, владелец ключа ЭЦП может воспользоваться услугой службы поддержки Центра регистрации по номеру 71 202-32-32 или обратится в ближайшие центры государственных услуг.<br><br>12.2. Во всем остальном, не предусмотренном настоящей Офертой, стороны будут руководствоваться действующим законодательством Республики Узбекистан. |
| **Ro'yxatga olish markazining manzili va rekvizitlari:**<br><br>**O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi "Yangi texnologiyalar" ilmiy-axborot markazi DUK**<br><br>100096, Toshkent shahri, Muqimiy ko'chasi, 166. H/r.: 20210000800431200009 "KAPITALBANK" ATB Mirzo Ulug'bek filialida.<br>MFO: 01018;<br>STIR: 201589463;<br>IFUT: 58290. | **Адрес и реквизиты Центра регистрации:**<br><br>**ГУП Научно-информационный центр «Янги технологиялар» при ГНК Республики Узбекистан**<br><br>100096, город Ташкент, улица Мукими, 166. Р/с.: 20210000800431200009 в Мирзо Улугбекском филиале АКБ «KAPITALBANK»<br>МФО: 01018;<br>ИНН: 201589463;<br>ОКЭД: 58290. |
| **Direktor**<br><br>________________ **Sh.S. Qayumov** | **Директор**<br><br>________________ **Ш.С. Каюмов** |